Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 2
FILOLOGIYA

DINIY NUTQDA QO‘LLANUVCHI MURAKKAB ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

Elnora Anvarovna Bakirova*
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi (Farg‘ona tumani 1-umumta‘lim maktabi o‘qituvchisi)
✉ elnoraanvarovna1528@.gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada murakkab ergash gapli sintaktik qurilmalarning diniy matnda qo‘llanishi, ularning struktur-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Keltirilgan fikrlar misollar yordamida dalillangan.

Kalit so‘zlar


sintaktik stilistika, diniy nutq, stilistik qiymat, semantik-grammatik talab.

DOI: 10.5281/zenodo.21743355


KIRISH

Bugungi O‘zbekistonda o‘zbek tilida diniy kitoblarning nashr etilayotganligi, gazeta va jurnallarning chop etilishi yo‘lga qo‘yilganligi, diniy ko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar olib borilayotganligi hozirgi o‘zbek adabiy tilidan diniy maqsadlarda foydalanilayotganligini ko‘rsatadi. Albatta, bunday diniy matnlarda o‘ziga xos leksika, o‘ziga xos tildan foydalaniladi [1]. Shu bois biz ham murakkab ergash gapli konstruksiyalarning diniy nutqda ishlatilishi borasida ham quyida lisoniy dalillar yordamida to‘xtalib o‘tamiz.


1. Murakkab kesim ergash gap har doim bosh gapdan keyin keladi, asosiy fikr esa murakkab ergash gapda ifodalanadi: *Bu haq shuki, sog‘liqni saqlash qonunlariga to‘la amal qilasan, ozodalik va pokizalik shart-larini joyiga qo‘yasan.* (“Hikmatnoma”)




2. Murakkab ega ergash gap birinchi darajali bosh gap tarkibidagi olmosh orqali ifodalangan eganing aniq ma’nosini ochish uchun xizmat qiladi: *Shunisi aniqki, kim shaytonga va nafsiga aldanib, ibodatlardan chalg‘ib, Alloh taologa yuzlanmasa, o‘limi oldidan fursat berilishini o‘tinib so‘raydi.* (“Hidoyat”)




3. Murakkab aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi ot bilan ifodalangan kesimni izohlab, aniqlab keladi va bosh gap bilan *-ki* yordamchisi orqali birikadi: *Yomon xulq shunday narsaki, bunday badfe'l kishi doimo kulfatda bo'ladi, odamlar esa undan xijolat chekadi.* ("Hikmatnoma")




Shunday zamonlar keladiki, o'shanda kishi tillani sadaqa qilaman desa ham, sadaqa oluvchini qidirib topolmaydi. (Buxoriy "Sahihi Buxoriy")



4. Murakkab to'ldiruvchi ergash gap bosh gapda qo'llanmagan to'ldiruvchining vazifasini bajaradi, o'zaro *-ki* bog'lovchisi yordamida birikib, bosh gapdan oldin keladi: *Alloh taolo aytadiki, agar banda unga bir qarich yaqinlashishni iroda qilsa, u bandasiga bir gaz yaqinlashur.* ("Ming bir hadis")




5. Murakkab hol ergash gapli qo'shma gap:




– *murakkab sabab ergash gapli qo'shma gap*ga oid misollardan bu uslubda juda keng foydalaniladi. Boisi bunday murakkab qo'shma gaplarda murakkab ergash gap sababni ko'rsatsa, bosh gap shu sababdan kelib chiqadigan natijani ifodalaydi: *Otimni ushlab, namoz o'qiganim afzal, chunki uni o'z holiga qo'yib yuborsam, o'tlab uzoqlarga ketib qoladi va uni tutish menga qiyin bo'ladi.* (Buxoriy "Sahihi Buxoriy")


Bu nutq uslubida *zero* bog'lovchisidan sabab-izoh munosabatini ifodalash maqsadida unumli foydalaniladi: *Shamolni haqoratlamanglar, zero u Allohning huzuridan keladi va ba'zida yaxshilik (rahmat), ba'zida azob (zahmat) keltiradi.* ("Ming bir hadis")



– *murakkab natija ergash gapli qo‘shma gap*larda real fikr ifodalanganda fe’l-kesimlar o‘tgan zamon shaklida kelib, aniq dalilni ko‘rsatadi: *Ahvol shu darajaga yetdiki, kunduzi sodir bo‘lgan bir voqeaning oqibati qanday bo‘lishini o‘sha kechasi ko‘rgan tushi yordamida gapirib berishi mumkin edi, chunki bu ro‘yolar quyosh singari musaffo, yorug‘ tushlar edi.* (“Ming bir hadis”)



– *murakkab o‘lchov-daraja ergash gapli qo‘shma gap* qismlari *-ki* yordamchisi orqali bog‘lanadi va murakkab ergash gap bosh gapdan keyin keladi. Bunday murakkab ergash gaplarda qisman natija mazmuni ham ifodalanadi: *Bu istagi shu qadar kuchli ediki, agar ketmasa, birov uni zo‘rlab olib boradigandek his etar edi o‘zini.* (Buxoriy “Sahihi Buxoriy”)



– ***bir necha ergash gapli qo‘shma gap***dan tuzilgan ba’zi murakkab ergash gaplar tarkibidagi ergash gaplar ikki xil holatda ishlatiladi: o‘zi boshqa gapga ergashadi va ayni bir vaqtda o‘ziga boshqa ergash gapni tobe qilib keladi: *Kimki ikki yashar urg‘ochi bo‘taloq zakot qilishi lozim bo‘lsa-yu, unda bunday bo‘taloq bo‘lmasa, o‘rniga bir yashar bo‘taloq bilan birga ikki qo‘y yoki yigirma dirham qo‘shib beradi.* (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Sunniy aqiydalar”)



Xuddi shunga o‘xshash holatni quyidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin: *Ro‘zador dimog‘iga dori quysa-yu, tomog‘iga ketib qolmasa, zarari yo‘q.* (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Sunniy aqiydalar”)

Yuqorida keltirilgan har ikkala misol ham uchta predikativ birlikdan tashkil topgan bo‘lib, ularni quyidagicha izohlash mumkin:

3 WP_m – birinchi darajali bosh gap;

2 WP_m – birinchi darajali bosh gapdan oldin kelib, unga nisbatan ergash gap; o‘zidan oldingi ergash gap uchun bosh gaplik vazifasini bajaradi;

1 WP_m – oddiy ergash gap;

1 WP_m + 2 WP_m – murakkab ergash gap.

Umuman olganda, diniy matnlarda murakkab ergash gapli qo‘shma gaplardan unumli foydalaniladi. Buning sababi bu turdagi sintaktik qurilmalarda voqea-hodisalar izchil bayon etiladi.

XULOSA

Murakkab qo‘shma gaplarning stilistik qiymati ular tarkibidagi predikativ birliklarning mazmunan biri ikkinchisini taqozo etishi, ma’lum tartibda joylashishi, bog‘lovchi vositalarni qo‘llashda ularning sinonimlaridan to‘g‘ri foydalanish bilan o‘lchanadi.

Belgilangan semantik-grammatik talablarga rioya qilish murakkab ergash gapli qo‘shma gaplarni tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda:

– qo‘shma gapni tashkil etuvchi predikativ birliklarning mazmun jihatidan biri ikkinchisiga aloqador bo‘lishi;

– qo‘shma gap qismlari o‘rtasida bog‘lovchilarni to‘g‘ri qo‘llash;

– qo‘shma gapda bir xil bog‘lovchilarni ortiqcha, takror qo‘llamaslik, ularning sinonimlaridan foydalanish;

– qo‘shma gap qismlari o‘rnini to‘g‘ri belgilash, voqea-hodisalarning ketma-ket yuzaga chiqishini hisobga olish;

– fikr ifodalashda qo‘shma gapning turli tip va variantlaridan foydalanish [2].

Yuqoridagi tahlillarimizga tayanib shuni aytish mumkinki, murakkab ergash gaplarning shakllanishi muayyan stilistik maqsad talablari asosida amalga oshadi. Ularning qo‘llanish chastotasi – nutq uslubining turi bilan bog‘liq.

Murakkab ergash gapli qo‘shma gaplar oddiy ergash gapli qo‘shma gaplarga nisbatan qo‘llanilish doirasi tor bo‘lsa-da, lekin ularning har bir nutq uslubida ishlatilish o‘rni o‘ziga xosdir.

Diniy uslubda murakkab ergash gapli qo‘shma gaplardan foydalanish qamrovi ancha keng. Chunki diniy nutq uslubida fikr obrazli tasvirlanadi. Natijada murakkab ergash gapli qo‘shma gapning semantik turlariga ehtiyoj seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Фарғона, 2021.

2. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. Тошкент. 1990.